



## JIZZAX VILOYAT STATISTIKA BOSHQARMASI



## JIZZAX VILOYAT SANOAT ISHLAB CHIQRISHI

2023- YIL YANVAR - IYUN  
(DASTLABKI MA'LUMOT)




## Jizzax viloyatining sanoat ishlab chiqarishi


(2023- yil yanvar-iyun oylarida)

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2023- yilning yanvar-iyun oylarida viloyat korxonalari tomonidan 9437,1 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2022- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi\* 106,3 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi 97,8 % ni tashkil etdi.




### Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarishi, FHI\* % da



\*Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.


Jami sanoat ishlab chiqarishi fizik hajmi o‘shishining asosiy omili bo‘lib, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatning 9,8 % ga, o‘shishi kuzatildi.

**Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoati**



Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2023- yilning yanvar-iyun oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 42,8 mlrd. so‘mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining ulushi 0,5 % ini tashkil etdi.

**Jami sanoat ishlab chiqarishi hajmidagi ulushi, foizda**



## 2023-yil yanvar-iyun

Tumanlar miqiyosida, tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi, mln. so‘mda

Tumanlar nomi	2022- yil yanvar-iyun	2023- yil yanvar-iyun	Farqi +/-
G‘allaorol tumani	10 504,4	10 288,0	-216,4
Sharof Rashidov tumani	15 072,1	8 352,2	- 6719,9
Forish tumani	4 812,6	2 813,1	-1 999,5
Jizzax shahri	15 895,6	13 982,5	-1 913,1
Zafarobod tumani	6514,0	4 701,0	- 1 813,0

Jami sanoat ishlab chiqarishi tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash Shahar va tumanlar kesimida jami hajmidagi eng yuqori ulushi Jizzax shahriga 32,7 % Sharof Rashidov tumaniga to‘g‘ri kelib 19,5 % ni va G‘allaorol tumani 24,0 % ni tashkil etdi.

21,8 %


53,7 %

2022- yil

2023- yil

O‘tgan yilning mos davriga nisbatan, % da

Ishlab chiqaradigan sanoat



2023- yilning yanvar-iyun oylarda ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 9233,4 mlrd.so'mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 97,8% ini tashkil etdi.


2022-yil yanvar-iyun

94,2 %

2023-yil yanvar-iyun

97,8 %

O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,1 % (0,1 %) ni o'rta-yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 52,8 % (23,7 %) ni, o'rta-quyi texnologiyali 14,8 % (19,6 %) va quyi texnologiyalisi - 30,2 % ( 50,8 %)ni tashkil etdi.






Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida mashina va asbob- uskunalar ishlab chiqarish, ta'mirlash va o'rnatish, avtotransport vositalari, yarim tirkamalar va boshqa tayyor buyumlarni ishlab chiqarish sohasining ulushi – 50,5 % ( 2022- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 89,1 %), metallurgiya sanoatining ulushi – 0,8 % ( 2022- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 164,8 %), to'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 20,5 % ( 2022- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 107,4 %), oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 6,9 % ( 2022- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 100,6 %), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi – 5,1 % ( 2022- yilning yanvar –iyun oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 130,1 %)ni tashkil etdi.

**Ishlab chiqaradigan sanoatda ayrim turdagi mahsulotlarning o'sish sur'ati**  
O'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da


Paxta tolasi




Paxta chigiti



Paxta linti




O'simlik yog'i (tozalangan)



Trikotaj polotnolar



Yumshoq bug'doy va spelta uni



**Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish**

Sanoat mahsulotlari	2022- yil yanvar-iyun	2023- yil yanvar-iyun	Farqi +/-
Paxta tolasi, t.	14 584,4	15 095,0	510,6
Yumshoq bug‘doy va spelta uni, t.	32 582,2	6 146,7	-26 435,5
Paxta chigiti, t.	40 991,7	22 607,6	- 18 384,1
O‘simlik yog‘i (tozalangan), t.	2 712,0	4002,4	1 290,4
Paxta linti, t.	1089,7	1 353,6	263,9
Trikotaj polotnolar, t.	908,0	1384,0	476,0

2023- yilning yanvar-iyun oyilar davomida ishlab chiqaradigan sanoatda 6,1 ming tonna yumshoq bug‘doy va spelta uni ( 82,9 % kamaygan), 15,1 ming tonna paxta tolasi ( 3,5 % ga oshgan), holda ishlab chiqarilib, 22,6 ming tonna paxta chigiti 2,3 % ga ) kamaygani kuzatildi.

**Yumshoq bug‘doy va spelta uni**

17,1 %


**Paxta tolasi, t.**

103,5 %

*O‘tgan yilning mos davriga nisbatan, % da*

### Metallurgiya sanoati

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2022- yilning yanvar-iyun oylarida metallurgiya sanoati ulushi 1,0 % ni tashkil etib, uning fizik hajm indeksi 74,8 % ga tashkil etgan bo'lsa, 2023- yilning yanvar-iyun oylar yakunlariga ko'ra, metallurgiya sanoatining ulushi 0,8 % gacha kuzatildi, fizik hajm indeksi esa, 164,8 % o'sish sur'atlari kuzatildi va ishlab chiqarish hajmi 71,2 mlrd. so'mni tashkil etdi.




### Boshqa no metall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish



Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2022- yilning yanvar-iyun oylarida boshqa no metall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ulushi 14,4 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 107,1 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2023- yilning yanvar-iyun oylar yakunlariga ko'ra, boshqa no metall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 11,3 % ni tashkil etdi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 122,6 % ga o'sish sur'atlari kuzatildi va ishlab chiqarish hajmi 1064,8 mlrd. so'mni tashkil etdi.

### Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati


Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2022- yilning yanvar-iyun oylarida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 12,6 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 105,5 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2023- yilning yanvar-iyun oylar yakunlariga ko'ra, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 6,9 % ni tashkil etdi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 100,8 % ga oshdi va ishlab chiqarish hajmi 648,3 mlrd. so'mni tashkil etdi.





### Ichimliklar ishlab chiqarish sanoati

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2022- yilning yanvar-iyun oylarida ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 0,1 % ni tashkil etgan bo'lsa, uning fizik hajm indeksi 57,0 % ni tashkil etgan. 2023- yilning yanvar-iyun oylari yakunlariga ko'ra, ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 0,1 % ni tashkil etdi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 88,0 % ni va ishlab chiqarish hajmi 4,8 mlrd. so'mni tashkil etdi.




### To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati



Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2022- yilning yanvar-iyun oylarida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 30,5 % ni tashkil etgan bo'lsa, uning fizik hajm indeksi 99,1 % ni tashkil etgan. Shuningdek, 2023- yilning yanvar-iyun oylarida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 16,7 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi 98,7 % tashkil etgan bo'lsa, ishlab chiqarish hajmi 1578,9 mlrd. so'mni tashkil etdi.

### Kiyim ishlab chiqarish sanoati


2022-yilning yanvar-iyun oylari yakunlariga ko'ra, kiyim ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 3,9 % ni, fizik hajm indeksi esa 87,2 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2023- yilning yanvar-iyun oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 3,8 %, fizik hajm indeksi 169,2 % ni, ishlab chiqarish hajmi esa 358,6 mlrd. so'mni tashkil etdi.




### Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish

2022-yilning yanvar-iyun oylari yakunlariga ko'ra kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,5 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 153,6 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2023- yilning yanvar-iyun oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 2,9 % ni, fizik hajm indeksi 133,5 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 276,2 mlrd. so'mni tashkil etdi.



### Elektr jihozlari ishlab chiqarish




2022- yilning yanvar-iyun oylari yakunlariga ko'ra, Elektr jihozlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 3,8 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 85,0 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2023- yilning yanvar-iyun oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 3,2 % ni, fizik hajm indeksi 208,1 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 305,6 mlrd. so'mni tashkil etdi.

### Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish


2022- yilning yanvar-iyun oylari yakunlariga ko'ra, rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 2,8 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 93,3 % ga oshgan.

Shuningdek, 2023- yilning yanvar-iyun oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 2,2 % ni, fizik hajm indeksi 125,4 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 206,3 mlrd. so'mni tashkil etdi.



## Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 117,5 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining ulushi 1,2 % ini) tashkil etdi. 2023- yilning yanvar-iyun oylarida, sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug' bilan ta'minlash tizimlari va havoni konditsiyalashning o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 36,0 % ga pasayishi kuzatildi.




Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2022- yil yanvar-iyun	2023- yil yanvar-iyun	Farqi +/-
Elektr energiyasini uzatish bo'yicha xizmatlar, mln. so'm	140 865,1	75 023,9	-65 841,2
Boshqa bug' va issiq suv (issiqlik energiyasi), ming gkal	3,3	3,9	0,6
Gazsimon yonilg'ini quvurlar orqali taqsimlash bo'yicha xizmatlar, mln. so'm	39 175,1	42 430,9	3 255,8

### Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilish

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 43,4 mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,5 % ini) tashkil etdi.



### Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2022- yil yanvar-iyun	2023- yil yanvar-iyun	Farqi +/-
Suvni yig'ish, qayta ishlash va taqsimlash bo'yicha xizmatlar, mln. so'm,	32 493,2	35 569,7	3 076,5
Chiqindilarni yig'ish, ishlov berish, yo'qotish, utilitatsiya qilish bo'yicha xizmatlar, mln. so'm	10 822,9	7 851,1	-2 971,8

O'tgan yilning mos davriga nisbatan suvni yig'ish, qayta ishlash va taqsimlash bo'yicha xizmatlar 9,5 % ga o'sishi kuzatildi, shuningdek chiqindilarni yig'ish, ishlov berish, yo'qotish, utilitatsiya qilish bo'yicha xizmatlar 15,4 % ga pasayishi kuzatildi.

## Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 5597,2 mlrd.so'mni tashkil etdi va 2022 yilning mos davriga nisbatan 187,7 % ni, uning jami sanoatdagi ulushi 59,3 % ni tashkil etdi.

### Oziq-ovqat mahsulotlari

2022-yil  
yanvar-iyun

25,9%

2023-yil  
yanvar-iyun

9,9%

### Nooziq-ovqat mahsulotlar

2022-yil  
yanvar-iyun

74,1%

2023-yil  
yanvar-iyun




90,1%

Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish vino va aroq mahsulotlari va pivo 9,9 % (2022- yil yanvar-iyun oylarida 25,9 %) ni tashkil etdi. Shahar va tumanlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Jizzax shahriga to'g'ri kelib 24,5 % ni va Zarbdor tumani 8,9 % ni, Zomin tumani 15,5 % ni hamda Paxtakor tumani 20,9 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, oziq-ovqat iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida eng yuqori ko'rsatkich Baxmal tumanida (184,9 %), Forish tumanida (138,2 %) hamda Yangiobod tumanida (130,0 %), qayd etildi.

**Shahar va tumanlar bo'yicha iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati**

Shahar va tumanlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Jizzax shahriga to'g'ri kelib, 6,6 % shuningdek, G'allaorol tumani 78,9 %, ni, hamda Paxtakor tumani 2,5 % ni tashkil etdi.





## Shahar va tumanlar bo'yicha nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati

Shahar va tumanlar kesimida nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Jizzax shahriga to'g'ri kelib, 4,6 % shuningdek, G'allaorol tumani 87,1 %, ni tashkil etdi.

**1195,1** mlrd. so'm


2021- yil yanvar-iyun

**2010,7** mlrd. so'm



2022- yil yanvar-iyun

**5044,9** mlrd. so'm

2023- yil yanvar-iyun



Jami iste'mol mollari ishlab chiqarish hajmida nooziq- ovqat mahsulotlarining ulushi






o'sish sur'ati

mlrd. so'm

## Shahar va tumanlar bo'yicha oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati

Shahar va tumanlar kesimida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Jizzax shahriga to'g'ri kelib, 37,0 % ni, shuningdek, Zarbdor tumani 12,3 % ni, Zomin tumani esa 11,6 % ni tashkil etdi.



### Jizzax viloyatining shahar va tumanlar kesimida sanoat ishlab chiqarishi hajmlari

Shahar va tumanlar kesimida sanoat ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Jizzax shahriga to'g'ri kelib, 20,5 % ni, shuningdek, G'allaorol tumani 47,4 % ni, Zafarobod tumani esa 7,9 % ni tashkil etdi.

#### Jizzax viloyati

2021- yil

3495,5 mlrd. so'm

2022- yil

5153,4 mlrd. so'm

2023- yil

9437,1 mlrd. so'm



2021- yil

114,7 %

2022- yil

107,1 %

2023- yil

106,3 %

Jizzax viloyati

106,3

9437,1

Jizzax shahar

101,0

1932,6

Arnasoy

96,6

142,0

Baxmal

108,6

59,6

G'allaorol

116,2

4469,2

Sharof Rashidov

101,4

287,5

Do'stlik

100,1

367,9

Zomin

102,7

361,6

Zarbdor

103,5

195,3

Zafarobod

104,4

742,3

Mirzacho'l

104,3

151,2

Paxtakor

104,5

380,6

Forish

104,6

308,1

Yangiobod

104,8


39,2

FHI, % da

mlrd. so'm



**Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish**

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalari joylashganligi hisobiga Jizzax shahri (10010,2 ming so'm), Zafarobod (14038,7 ming so'm) tumanida hamda G'allaorol (24310,3 ming so'm) o'rtacha viloyat darajasi ko'rsatkichidan (6362,2 ming so'm) ancha yuqoriligini ko'rsatmoqda.



Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi



Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 2 260,5 mlrd. soʻmlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 24,0 % ni tashkil etdi.



## Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Viloyat bo'yicha aholi jon boshiga iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishi 3 773,4 ming so'm bo'lgani holda, Jizzax shahrida 1 909,7 ming so'mni, Paxtakor tumanida 1777,2 ming so'mni, G'allaorol tumanida 24023,7 ming so'mni tashkil etdi.

### Jizzax viloyati




o'sish sur'ati

ming. so'm



## Jizzax viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari

Bugungi kunda viloyatda 2715 ta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 724 tasi ( faoliyat yuritayotgan korxonalar umumiy sonining 26,7 % i ) Jizzax shahriga, 369 tasi (13,6 %) Sharof Rashidov tumaniga, 325 tasi ( 12,0 %) G'allaorol tumaniga, 247 tasi ( 9,1 %) Zomin tumaniga va 184 tasi (6,8 %) Zarbdor tumaniga to'g'ri kelmoqda.



### Jami yangi tashkil etilgan

2021-yil  
433 dona

2022- yil  
513 dona

2023- yil  
398 dona



### Jami faoliyat yuritayotgan

2021- yil  
3656 dona

2022- yil  
3889 dona

2023- yil  
2 715 dona

2023-yil yanvar-iyun

## Tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish dasturining amalga oshirilishi

Viloyatda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning yuqori o'sish sur'atlariga erishishda tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish Dasturining amalga oshirilishi ham o'z ta'sirini ko'rsatdi. Mazkur dastur doirasida kiritilgan 90 ta loyiha bo'yicha 5756,0 mlrd. so'mlik mahsulotlar ishlab chiqarildi. Mahalliyashtirish dasturi doirasida ishlab chiqarilgan mahsulotlardan 24,8 mln. AQSH dollari miqdorida eksport qilindi.



Mahalliyashtirish dasturi doirasida 2023- yilning yanvar-iyun oylarida 551 ta yangi ish o'rinlari yaratildi, o'tgan yilning mos davri bilan taqqoslaganda mahsulotlar ishlab chiqarish hajmi 249,8 % ga oshgan. Shu bilan birga, 2022- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan mahalliyashtirilgan mahsulotlar eksporti hajmining 119,2 % ga o'sishi kuzatildi.